

TA'LIM TIZIMIDAGI MASOFAVIY TA'LIM SHAKLINING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK JARAYONLARI

Muhammadjonova O'g'iloy Bahodirjon qizi

FarDU talabasi

Sherqo'ziyeva Zarnigor Farhodjon qizi

FarDU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim tizimi shaklidagi masofaviy ta'lim tizimi haqida ma'lumot berilib va masofaviy ta'lim shaklining afzallik tomonlari shuningdek bu ta'lim shaklining talabalar uchun qanday ijobiy jihatlari borligi haqida kengma'lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, kompyuter, talaba, onlayn darslar, axbarot texnologiyalari

Masofaviy ta'lim- deganda, elektron va internet orqali olib boriladigan ta'lim tushunchasi ma'nosini anglatamiz. Bu usulda o'qish, onlayn darslar, vebinarlar, masofaviy darsliklar yoki internet orqali o'qitish tizimlari orqali amalga oshiriladi. Bu, o'quvchilar uchun oz vaqtlarida va joylarida ta'lim olish imkoniyatini beradi va dunyo bo'ylab ko'p eruditsiyaga ega bo'lishga yordam beradi. Masofaviy ta'lim tez-tez kompyuterlar, internet, videolar, interaktiv darsliklar va boshqa texnologiyalardan foydalanadi.

Masofaviy ta'lim tizimi har bir insonning shaxsiy o'rganish vaqtini boshqarish, o'z-o'zini rivojlantirish uchun qulay va foydali usullarni taklif etadi. Quyidagi qulaylik usullaridan bir nechtasini ko'rsatish mumkin:

Online darslar va darsliklar: Elektron darsliklar va darslar, o'quv materiallariga oson va tez kirish imkonini beradi. Bu usul o'quvchilarga o'zlarining jadvaliga mos ravishda o'rganishlariga imkon beradi.

Platformalar va ilovalar: Ta'limni olib borish uchun foydalanish mumkin bo'lgan xususiy platformalar va ilovalar, masalan, Google Classroom, Moodle, va boshqalar, o'quv jarayonini boshqarish, vazifalarni yuklash va o'tkazishga imkon beradi.

Interaktiv vositalar: O'quvchilar uchun interaktiv o'quv vositalari, masalan, interaktiv sinovlar, matnlar, animatsiyalar yoki onlayn laboratoriyalar, ma'lumotlarni oson va ilg'or tarzda o'rganishlariga yordam beradi.

O'zlashtirilgan ta'lim: Har bir o'quvchi o'zining shaxsiy o'rganish tempini va xohishlarini qondirishga imkon beruvchi ta'lim tizimi. Bu usul o'quvchilarga o'zlariga mos keladigan yo'nalishda o'rganishlariga imkon beradi. Masofaviy ta'lim tizimlarida qulaylik va foydalanishning keng imkoniyatlari mavjud. Bunday vositalar

o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishini, ta'limlarini boshqarishni va o'rganishlarini oson va qulay qilishga yordam beradi.

Masofaviy ta'lim – masofadan turib o'quv axborotlarini o'zaro almashuvchivositalarga asoslangan ta'lim turidir. Bunda axborotlarni, ya'ni ta'limdayangikashfetilgan yangiliklarni, ixtirolarni, yoki ma'lum bir mavzuning engosono'rganishhamda o'rgatish usullarini yaqin masofa bo'ylab yoki butun dunyobo'ylabjudatezva qisqa fursatda o'zaro almashinish imkoniyatini beradi. Masofaviy ta'lim turida o'qituvchi maxsus axborot muhiti yordamida, aholining barcha qatlamlari hamda chet ellik ta'lim oluvchilarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi ta'lim jamlanmasidir.

Masofaviy o'qitish ta'lim tizimi– bu eng yaxshi an'anaviy va innovatsion metodlar, shuningdek o'qitish vositalarini o'z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta'limning zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim turidir.

Masofaviy o'qish ta'limi– bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta'lim turidir. Bu ta'lim turi ta'lim oluvchiga ma'lum standartlar va ta'lim qonun-qoidalarini asosida o'quv shart-sharoitlari va o'qituvchi bilan muloqotni ta'minlab berib, o'quvchidanki proq mustaqil ravishda shug'ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bu ta'lim turida o'qish ya'ni bilim olish jarayoni ta'lim oluvchini qaysi vaqtda va qaysi joyda bo'lishiga bog'liq emas. O'qituvchining yangi roli – masofaviy o'qitish ta'lim tizimida o'qituvchining o'qitish jarayonidagi asosiy vazifasini yanada kengaytiradi va yangilaydi. Bu ta'limda o'qituvchi ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish jarayonini o'zaro muvofiqlashtirishi, yangi kashf etilgan ixtirolar, yangiliklar va innovatsiyalarga mos ravishda berayotgan fanini muntazam ravishda mukammallashtirib borishi, bilimsaviyasi va o'zining ijodiy faoliyatini yanada chuqurlashtirishi talab etiladi.

Masofaviy ta'lim tizimining sifati – masofaviy usulda ta'lim olish usuli ta'lim berish sifati bo'yicha kunduzgi ta'lim turidan qolishmaydi. Balki, masofaviy ta'lim olish usulining bir qancha afzallik tomonlari ham bor. Masalan ta'lim jarayonida chet ellik tajribali dars beruvchi o'qituvchilarni jalb qilib, ulardan ta'lim olishning eng qulay vaqtida va kam xarj, hamda aniq bir joyda bo'lish talab etilmaydigan eng qulay usulidir. Bu ta'lim jarayonida eng yangi yaxshi o'quv metodik darsliklardan foydalangan holda ta'lim berish o'quv jarayonining tashkil etish sifati oshirishim mumkin.

Mamlakatimizda Oliy malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash mexanizmini xalqaro ta'lim standartlari asosida tayyorlashning zarur shart-sharoitlarini yaratishni, masofaviy ta'lim sharoitida talabalarga bilim berishning yangicha usul vositalarni qo'llash metodikasini takomillashtirish asosiy vazifa sifatida belgilanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori tasdiqlandi. Unda masofaviy ta'limni tashkil etish yuzasidan Nizom tasdiqlangan. Masofaviy ta'lim to'g'risida berilgan nizomda quyidagicha ta'rif berilgan: masofaviy ta'lim — talaba va ta'lim beruvchining axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishiga, interaktiv audio va videokonferensiyalar orqali ma'lum vaqt orasida o'zaro muloqotda bo'lishiga, elektron pochta orqali to'g'ri va teskari aloqa o'rnatishiga, jumladan xabarlarini yuborishi va qabul qilishiga mo'ljallangan, bilim va ko'nikmalarni, o'quv dasturlarini masofadan turib o'zlashtirishga yo'naltirilgan ta'lim shakli.

Masofaviy ta'lim quyidagi tamoyillar asosida tashkil etiladi: ishtirokchilarning interfaoligi, talabalarning identifikatsiya qilinishi, yangi axborotkommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashning pedagogik maqsadga muvofiqligi, ta'lim berishning ochiqligi va moslashuvchanligi. Masofaviy ta'limni tashkil etishning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin: talabalarning masofadan turib ta'lim olish va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojini qondirish, o'quv jarayonini tashkil etishning umumiy, guruh va individual shakllarining uyg'unligi, kadrlarning kasbiy darajasini oshirish va ularning mustaqil bilim olishiga ko'maklashish, talabalarga mamlakatning har qaysi hududida va uning tashqarisida ta'lim olishning teng imkoniyatlarini taqdim etish, ta'lim xizmatlari eksportini kengaytirish orqali ta'lim tizimining jozibadorligini oshirish.

Masofaviy ta'limning imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

- Ta'lim olishda yangi imkoniyatlar (ta'lim olishning arzonligi, vaqt va joyga bog'liqmasligi va boshqalar).
- Masofaviy ta'lim shakli asosida kadrlar tayyorlashda bir bakalavriat ta'lim yo'nalishiga qabul parametrlari 300 nafar talabadan, bir magistratura mutaxassisligiga 30 nafar talabadan ortiq bo'lmasligi va ta'lim olishni xohlovchilar sonining oshishi.
- Sifatli axborot texnologiyalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi. - Xalqaro integratsiyaning kuchayishi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlash jarayonida axborot texnologiyalarni nafaqat texnik imkoniyatlaridan, balki ularning intellektual imkoniyatlaridan foydalanish, ta'lim muassasi jihatidan har bir alohida ta'lim oluvchiga moslashtirilgan o'quv tizimini vujudga keltirish, uning moslashtirilgan ta'lim jarayonini tashkil qilish imkoniyatini yaratib berish,

ishlabchiqarish jarayonidan ajralmagan holda masofaviy ta'limni joriyetishbugungikunda barcha sohalarda malakali mutaxassislarni tayyorlash jarayonini izchillikbilan tashkil etilishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adizova, Nodira. "Nominal description of the bukhara." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 2.11 (2021): 330-335
2. Adizova, Nodira. "BOSHLANG 'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O 'QUVCHILAR NUTQINI O 'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AX OROTNOMASI." Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali 2.2 (2022).
3. Sherqo'ziyeva , Z. (2023). YOSH AVLODNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH MASALALARI. *Interpretation and Researches*, 1(10).
4. Muhammadjonova, O. B. . qizi, & Sherqo'ziyeva, Z. . F. qizi. (2023). O'QUVCHILARGA TANQIDIY FIKRLASHGA O'RGATISH VA UNING SAMARASI. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(5), 303–308.